



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



DISPUTNING INGLIZ ROMANLARIDAGI PRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK KO'RINISHLARI

Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi
 FarDU tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz romanlaridagi disput fenomenining pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda bahs, ixtilof va qarama-qarshilik kabi kommunikativ hodisalarning ingliz badiiy adabiyotidagi ifodalanish shakllari, ularning ingliz madaniyati hamda milliy tafakkuridagi o'rni yoritilgan. Pragmatika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan ingliz romanlaridagi dialoglar va personajlararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan bahsli vaziyatlarning asosiy kommunikativ strategiyalari, madaniy kodlari va diskursiv tuzilmalari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida klassik va zamonaviy ingliz romanlaridan olingan misollar asosida disputning adabiy diskursdagi funksional xususiyatlari hamda uning jamiyat va adabiyot taraqqiyotiga ta'siri ochib berilgan. Maqola ingliz tilshunosligi, adabiyotshunoslik, pragmatika, lingvokulturologiya hamda til va madaniyat o'zaro munosabatlarini tadqiq etuvchi olimlar, magistrantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: disput, ingliz romanlari, pragmatika, lingvokulturologiya, dialog, bahs, nutq aktlari, madaniy kod, milliy tafakkur, adabiy diskurs.

Abstract: This article examines the pragmatic and linguocultural features of the dispute phenomenon in English novels. The study explores the representation of communicative phenomena such as disputes, disagreements, and conflicts in English literary works, as well as their role in English culture and national mentality. Drawing on the theoretical foundations of pragmatics and linguoculturology, the article analyzes the principal communicative strategies, cultural codes, and discursive structures of controversial situations reflected in dialogues and interpersonal relationships between literary characters. Examples from both classical and contemporary English novels are used to reveal the functional characteristics of disputes in literary discourse and to demonstrate their influence on the development of literature and society. The article is intended for researchers, master's and bachelor's students specializing in English linguistics, literary studies, pragmatics, linguoculturology, and language-culture interaction.

Key words: dispute, English novels, pragmatics, linguoculturology, dialogue, speech acts, cultural code, national mentality, literary discourse.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются прагматические и лингвокультурологические особенности феномена спора в английских романах. Исследование посвящено изучению способов репрезентации таких коммуникативных явлений, как спор, несогласие и противоречие, а также их роли в английской культуре и национальном мировоззрении. На основе прагматического и лингвокультурологического подходов рассматриваются основные коммуникативные стратегии, культурные коды и дискурсивные структуры конфликтных ситуаций, представленных в диалогах и межличностных отношениях персонажей английских романов. В качестве эмпирического материала использованы примеры из классических и современных английских романов, что позволило выявить функциональные особенности спора в художественном дискурсе и показать его влияние на развитие общества и литературы. Статья предназначена для исследователей, магистрантов и студентов, занимающихся вопросами английской лингвистики, литературоведения, прагматики, лингвокультурологии и взаимодействия языка и культуры.

Ключевые слова: спор, английские романы, прагматика, лингвокультурология, диалог, речевые акты, культурный код, национальное мировоззрение, литературный дискурс.

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida adabiyot jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy munosabatlarning eng yorqin ifodalaridan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Ingliz roman janri o'zining chuqur psixologik tahlili, lingvistik boyligi va rang-barang nutqiy vositalari bilan nafaqat Yevropa, balki jahon adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Aynan ingliz romanlarining boy badiiy va falsafiy merosida "disput" – bahs, qara-

ma-qarshilik, ixtilof va fikrlar to'qnashuvi muhim badiiy motiv sifatida alohida o'rin egallaydi. Disput nafaqat voqealar rivojini ta'minlovchi vosita, balki qahramonlarning ma'naviy kamoloti, xarakterlararo munosabatlar hamda jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarining ochib berilishida ham muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda ingliz roman san'atida muntazam uchrab turuvchi disput fenomenining lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Maqolada, avvalo, adabiyot va madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan bahsli dialoglar hamda nutq aktlarining ifodalanish mexanizmlari, ularning madaniy kodlari va ingliz milliy tafakkuri shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Ingliz romanlarida bahs, odatda, qahramonlararo dialoglar, qarama-qarshi pozitsiyalar, axloqiy hamda konseptual to'qnashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Davr ruhi, ijtimoiy muhit, muallifning dunyoqarashi va jamiyatning ma'naviy qadriyatlari romanlardagi bahslarning mazmuni hamda shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Disput fenomenini lingvistik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish esa ingliz romanlarining pragmatik imkoniyatlarini, madaniy qatlamlarini hamda diskursiv xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday adabiy asarda bahs (disput) ikki yoki undan ortiq shaxslar, guruhlar yoki ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi qarama-qarshi nuqtayi nazarlarning nutqiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Disput, odatda, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy yoki shaxsiy ziddiyatlar negizida yuzaga keladi. Ingliz romanining shakllanish va rivojlanish bosqichlarida, xususan XVIII–XIX asrlardan boshlab, roman janri jamiyat hayotini aks ettiruvchi muhim badiiy vositaga aylandi. Shu davrdan e'tiboran yozuvchilar mavjud ijtimoiy muammolarni, inson psixologiyasini va jamiyatdagi tafovutlarni bahs-munozaralar orqali tasvirlashga alohida e'tibor qaratdilar.

Charles Dickens, Jane Austen, George Eliot, Thomas Hardy, Virginia Woolf va Ian McEwan kabi yozuvchilarning romanlarida disput vositasida qahramonlarning ichki dunyosi, dunyoqarashi hamda jamiyatdagi o'rni chuqur tahlil etilgan. Disput nafaqat ochiq qarama-qarshilik yoki janjal shaklida, balki hayot haqidagi turli qarashlarning, an'anaviy va zamonaviy tafakkurning, azaliy qadriyatlar va yangi g'oyalarning to'qnashuvi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois ingliz romanlarida bahs inson hayotining mazmuni, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlarni anglashning muhim badiiy vositasiga aylanadi ^[1].

Disput madaniy va lingvistik jihatdan murakkab hamda ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. Ingliz romanlarida bahsli vaziyatlar ko'pincha milliy madaniyat, qadriyatlar va urf-odatlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Ingliz jamiyatida odob-axloq, hurmat va shaxslararo munosabatlar muhim ijtimoiy qadriyatlar sifatida qaralganligi sababli, bahs kommunikativ jarayonning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'plab romanlarda disput jarayonida inglizlarga xos muloyimlik, xushmuomalalik, kinoya va yumor elementlari, shuningdek, metaforik ifodalar hamda bilvosita nutq aktlari keng qo'llaniladi ^[2]. Natijada bahs nafaqat qarama-qarshi fikrlarning ifodasi, balki ingliz madaniyatining kommunikativ me'yorlari va milliy tafakkurini aks ettiruvchi lingvokulturologik hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jane Austen romanlarida, masalan, ijtimoiy mavqe, oilaviy munosabatlar yoki axloqiy e'tiqodlar ustida olib boriladigan bahslar, odatda, ifoda va madaniyat nuqtayi nazaridan nozik til vositalari hamda madaniy kodlar orqali namoyon bo'ladi.

Jane Eyre yoki Pride and Prejudice asarlarida qahramonlar bir-birlari bilan ziddiyatli, biroq ehtiromli tarzda bahslashadilar. Xuddi shuningdek, Charles Dickens romanlarida jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi ochiq va chuqur bahslar ham mavjud bo'lib, ular ko'pincha real hayotiy misollar va ijtimoiy kuzatishlar bilan boyitilgan holda Angliya madaniyatining asosiy tamoyillarini aks ettiradi.

Shuningdek, zamonaviy ingliz adabiyotida ham disput motivlari boshqa madaniyat vakillari bilan kommunikatsiya jarayonida, milliy stereotiplar, tafakkur va zamonaviy muammolar kontekstida keng ko'lamli tahlillar orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ingliz madaniyatining doimiy o'zgarishlar sharoitida ham barqarorligi, tolerantligi va ochiqqligini namoyish etadi.

Disput pragmatikasi nutq subyekting maqsadi, bahsli masala yuzasidan so'zlovchi va tinglovchining pozitsiyasi hamda javob reaksiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Romanlarda har bir bahs kommunikativ strategiyalar majmui sifatida namoyon bo'lib, unda iltimos qilish, inkor etish, rad qilish, tanqid, kelishmovchilikni ifodalash, ishontirish, maslahat berish, shubha bildirish kabi nutq aktlari faol qo'llaniladi ^[3].

Ingliz romanlarida dialoglarning ifodalanish usullari bevosita milliy til va nutq madaniyatiga mos keladi. Bunday bahsli jarayonlarda ko'pincha quyidagi pragmatik strategiyalar uchraydi:

- istehzoli yoki yumoristik ohanglar yordamida kuchli inkor yoki norozilik bildiriladi, natijada keskin qarama-qarshilik o'rni madaniyatli va muloyim munosabat egallaydi;



- turli mitigatsiya vositalari orqali bahsning keskinligi pasaytiriladi, ya'ni qat'iy rad etish o'rniga "Hisobga olishim kerak deb o'ylayman" yoki "Men boshqacha fikrdaman, biroq..." kabi yumshoq shakllardan foydalaniladi, bu esa ijtimoiy munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi;
- dialoglarda bahsli so'zlar, e'tiroz bildiruvchi iboralar va qarama-qarshi fikrlarni ifodalovchi nutq birliklari madaniy diskursning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'plab romanlarda bahs natijasi ochiq qoladi yoki yakuniy yechimga erishilmaydi. Bu holat hayotdagi tabiiy kommunikativ jarayonlarga hamohang bo'lib, har qanday bahsda mutlaq "g'olib" mavjud emasligini anglatadi. Disput ayrim hollarda obrazlar o'rtasida murosa, kelishuv yoki yangi muvozanat holatini yuzaga keltirsa, ayrim hollarda yanada chuqurroq ijtimoiy muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Disput ingliz roman san'atida shunchaki nutqiy voqelik emas, balki ijtimoiy va axloqiy taraqqiyotning muhim mexanizmlaridan biridir. Romanlar jamiyatdagi ong, axloqiy tushunchalar va hayotiy tamoyillar o'zgarishining maydoniga aylanadi. Obrazlararo bahs natijasida ularning dunyoqarashi kengayadi, psixologiyasi boyiydi va ko'plab yangi qadriyatlar shakllanadi.

Charles Dickensning *Great Expectations*, Jane Austinning *Sense and Sensibility*, Virginia Woolfning *To the Lighthouse* singari romanlarida bahsli dialoglar, obrazlarning bir-biriga qarama-qarshi e'tiqodlari hayot, tarbiya, axloq va jamiyat mavzulari atrofida kechadi. Bunday dialog va bahslar jamiyat muammolarini ochib berish, ijtimoiy adolat, tenglik, insonparvarlik va tolerantlik kabi masalalarning muhokamasiga xizmat qiladi. Xususan, zamonaviy ingliz adabiyotida ijtimoiy so'z erkinligi, demokratiya, inson huquqlari va gender tengligi haqida ko'tarilgan bahslar ingliz jamiyati uchun muhim madaniy evolyutsiyaning ko'zguasi vazifasini bajaradi^[4].

Romanlarda uchraydigan bahslar doimo ham aniq va bevosita ifodalangan ko'rinishda bo'lavermaydi. Ingliz milliy tafakkurida, ayniqsa, "politeness", ya'ni nazokat, odob, ortiqcha hissiyotlarni jilovlash hamda to'g'ridan-to'g'ri qarshilikni ochiq ifodalamaslik kabi lingvokulturologik kodlar muhim o'rin tutadi. O'rta va yuqori tabaqaga mansub obrazlar bahsni ochiq shaklda emas, balki ishora, kinoya va yumshoq metaforalar vositasida olib boradilar. Bu esa til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini, lingvokulturologik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Romanlarda ko'pincha ochiq rad etishdan ko'ra yumshoq izohli iboralar, diplomatik e'tirozlar va istoraviy shakllar ko'proq qo'llaniladi. Bunday dialog shakllari jamiyat va ijtimoiy qatlamlar uchun muhim axloqiy qadriyat sifatida aks etadi.

Bahsning ingliz romanlaridagi ifodasi, asosan, ingliz xalqining qadriyatlari, ijtimoiy hayot tarzi, tarbiyaviy qarashlari, tarixiy va madaniy tajribasi, ta'lim an'analari, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish hamda boshqa murakkab omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz xalqining tarixiy shakllanishi natijasida yuzaga kelgan axloqiy diskurs, urf-odatlar, nufuz va odob-axloq tizimi turli romanlarda turli shakl va usullarda aks etadi^[5].

Disput, o'z navbatida, adabiy personajlarning shaxsiy erkinlik, egalitar jamiyat, axloq va ma'naviy o'sish haqida mushohada yuritishlariga, shuningdek, jamiyatdagi ziddiyatlarning yaxlit va real tarzda ochib berilishiga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biridir. Disput motivlari, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va zamonaviy nuqtayi nazardan muhim o'rin tutgani bois, har bir zamonaviy ingliz romanida davr ruhi va hayot haqidagi zamonaviy qarashlarni kuzatish mumkin.

Hozirgi zamon ingliz romanlarini o'rganishda lingvistik va lingvokulturologik yondashuvlar yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Disput hodisasini o'rganishda nutq ishtirokchilarining maqomi, dialogik diskurs, madaniy kodlar, kontekst va subtekstlar, psixologik hamda sotsiokommunikativ modellarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bahs fenomenini lingvokulturologik jihatdan o'rganishda, avvalo, ingliz milliy tafakkuri, madaniy stereotiplari, qadriyatlar tizimi, axloqiy falsafasi va jamiyatdagi o'zgarishlar asosida chuqur hamda keng qamrovli tahlil olib borish maqsadga muvofiqdir. Yangi davr ingliz romanlarida disput hodisasi ko'proq ochiq, ijtimoiy muammolarga yo'naltirilgan va bevosita ijtimoiy voqelik bilan bog'langan holda namoyon bo'layotganini kuzatish mumkin. Bu orqali adabiyot jamiyat hayotidagi axloqiy va intellektual o'zgarishlar maydoniga aylanadi.

Disput, ya'ni bahs-munozara, ingliz romanlarida muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Bunday vaziyatlar orqali nafaqat personajlarning xarakteri, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, axloq hamda odob-axloq me'yorlari ham namoyon bo'ladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, disput har doim muayyan maqsadga xizmat qiladi: qahramonlar o'z pozitsiyalarini asoslashga, boshqalarning fikrini o'zgartirishga yoki o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga intiladilar. Ingliz romanlarida bahs-munozaradagi til ohangi, tanlangan leksik vositalar, kinoya, istehzo ifodalari va qo'llanilgan strategiyalar alohida ahamiyat kasb etadi^[6].

Masalan, Jane Austinning *Pride and Prejudice* asarida Elizabet Bennet va mister Darcy o'rtasidagi bahslar nafaqat ularning hissiy kechinmalarini, balki oilaviy qadriyatlari, ijtimoiy mavqei va shaxsiy qarashlarini ham namoyon qiladi. Ularning har bir bahsi chuqur yashirin ma'no va madaniy fon bilan boyitilgan bo'lib, ba'zan kulgili kinoyalar, ba'zan esa nihoyatda nazokatli va epchil iboralar orqali ifodalanadi. Bu, o'z navbatida, ingliz

madaniyatining nozik did, muomala madaniyati va "politeness", ya'ni muloyimlik me'yorlariga asoslanganligini aks ettiradi.

Disput jarayonida britan mentalitetiga xos bo'lgan "indirectness" – bevosita emas, balki bilvosita ifodalash, ochiq mojarodan qochishga intilish holatlari kuzatiladi. Personajlar ko'pincha ochiq tanqid yoki haqorat o'rniga yumshoqlik, kinoya yoki metaforik vositalar orqali o'z fikrlarini bildiradilar. Masalan, Great Expectations romanida Pip va boshqa qahramonlar o'rtasida yuzaga keladigan bahsli vaziyatlar ko'pincha nazokat bilan, bilvosita ifodalar vositasida uzatiladi. Bu esa ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy rol va ingliz jamiyatining hayot falsafasini namoyon qiladi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, ingliz romanlaridagi disputlar jamiyatga xos qadriyatlar, an'analar, axloqiy me'yorlar va stereotiplarni tasdiqlash yoki ularga shubha bilan qarash tendensiyasini aks ettiradi. Masalan, Viktoriya davri romanlaridagi bahslarda gender masalalari, jamiyatdagi mavqe va oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq tortishuvlar tez-tez uchraydi. Disputlar orqali muallif jamiyatdagi dolzarb muammolarni ko'taradi va o'z pozitsiyasini namoyon qiladi. Bu esa roman tilining boyishi, madaniy kodlarning shakllanishi va milliy xarakterning ifodalanishiga xizmat qiladi [7].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz romanlarida bahs-munozara muhim madaniy-lisoniy voqelik sifatida keng uchraydi. U orqali o'quvchi nafaqat personajlarning ichki dunyosi va ijtimoiy pozitsiyasini, balki ingliz jamiyatining madaniy asoslarini ham chuqurroq anglaydi. Disputlarda qahramonlarning tilga bo'lgan munosabati, bahs jarayonida tanlangan so'z va iboralar, ishontirish yoki kinoya usullari orqali har bir davr va ijtimoiy guruhga xos axloqiy qadriyatlar ochib beriladi. Ana shu jihatlarda ingliz romanlarining nafaqat adabiy, balki lingvokulturologik tahlil uchun ham boy material ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz romanlarida disput shunchaki ixtilof emas, balki jamiyat va shaxs rivojlanishidagi muhim kommunikativ hamda madaniy jarayondir.

Disput vositasida muallif obrazlar orqali jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va g'oyaviy muammolarini ham obyektiv, ham subyektiv tarzda aks ettiradi. Ingliz romanlaridagi bahsli dialoglar nafaqat individ va jamiyat o'rtasidagi dialektik munosabatlarni, balki milliy tafakkur va madaniy me'yorlarning mohiyatini ham ochib beradi.

Bahs fenomenini lingvokulturologik va pragmatik jihatdan tahlil qilish ingliz romanlarini yanada chuqurroq, zamonaviy hamda metatekstual yondashuv asosida o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy tuzilmalari, davrning axloqiy-psixologik qiyofasi va milliy mentalitetini ochib berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Eng muhimi, bahs va dialog, o'zaro fikrlar to'qnashuvi hamda yakuniy kelishuv romanlarda ham, hayotda ham taraqqiyot, yangilanish, o'zgarish va ezgulik manbai bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austen, Jane. *Pride and Prejudice*. London: Penguin Books, 2014.
2. Dickens, Charles. *Great Expectations*. London: Penguin Classics, 2003.
3. Eliot, George. *Middlemarch*. London: Wordsworth Editions, 2011.
4. Hardy, Thomas. *Tess of the d'Urbervilles*. London: Penguin Classics, 2003.
5. Woolf, Virginia. *To the Lighthouse*. London: Penguin Modern Classics, 2016.
6. McEwan, Ian. *Atonement*. London: Vintage Books, 2007.
7. Brown, Penelope & Levinson, Stephen. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
8. Leech, Geoffrey N. *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983.
9. Rahmatullaeva, Gulchehra. *Til va madaniyat asoslari*. Toshkent: Fan, 2021.
10. Yuldasheva, Dilafuz. *Ingliz adabiyotining lingvokulturologik asoslari*. Toshkent: Universitet, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.